

F. Qodirova

NUTQ O‘STIRISH

Kar bolalar maktablarining 2-sinfi darsligiga

ILOVA

TOSHKENT – 2002 yil

Taqrizchilar: A. Avloniy nomli XTXQTMOMI
katta o‘qituvchisi D. Nazarova
Andijon viloyat kar bolalar maktab-
internat o‘qituvchisi M. Nazarova



1-topshiriq

Yozgi ta'tilda

1. Nigora yozda buvisinikida dam oldi.
2. Nigora gullarga suv quydi, tagini yumshatdi.
3. Buvisi Nigora va ukasiga rahmat aytdi.

Yozing. Yozda siz nima qildingiz?

Men yozdaga yordam berdim (ona, dada, buvi)

Men yozdaqa bordim (bog‘, tog‘)

Men yozdada cho‘mildim (ko‘l, ariq, fontan)

Test. Yoz fasliga qaysi oylar kiradi?

1. Yanvar, fevral, mart;
2. Iyun, iyul, avgust;
3. Mart, aprel, may.

Kataklarni to‘ldiring:

1. Yoz faslining 3-oyi

2. Yoz faslining 1-oyi

3. Yoz faslining 2-oyi



2-topshiriq

Bobur yozda bolalar oromgohida dam oldi.

Bobur oromgohda meva terdi, raqsga tushdi, bolalar bilan to‘p o‘ynadi.



O‘qing.

Men yozda ertak kitob o‘qidim. Menga “Zumrad va Qimmat” ertagi yoqdi. Zumrad odobli, mehnatkash qiz. Qimmat dangasa, odobsiz qiz.

Siz o‘qigan kitobingiz haqida gapiring.

Yodlang: Kitob – bilimlar kaliti.



3-topshiriq

Bog‘da

Havo ochiq edi. Bolalar kuchuk bilan bog‘da yurgan edilar. Bog‘da har xil mevali daraxtlar: olma, o‘rik, gilos, shaftoli o‘sar edi. O‘riklar orasida qulupnay, olchalarining tagida bedalar o‘sar edi. Bog‘da har xil gullar va o‘tlar bor edi. Bolalar qulupnay, gilos terdilar. Birdan kuchuk qora buzoqchani ko‘rib qoldi. Bolalar yugurib keldilar. Ular ham buzoqchani ko‘rdilar.

Havo ochiq.

Kuchuk ola-bula.

Buzoqcha qora.
O'riklar orasida qulupnay o'sadi.
Qulupnay qizil rangda.
Gilos qizil rangda.
O'rik mevasi shirin.

Test. O'zbekistonda qaysi mevalar yetishtirilmaydi?

1. Olma
2. O'rik
3. Banan
4. Shaftoli



4-topshiriq

Quyonchalar dalaga bordilar.
Dalada qizil, shirin sabzi o'sar edi.
Quyonchalar xursand bo'lishdi.
Ular katta sabzini tortib olishdi.



Quyonchalar sabzini uylariga olib jo'nadilar. Bitta quyoncha oldinda, ikkinchisi orqada ketayotgan edi. Ikkinchchi quyoncha sabzini yeb ko'rdi. Sabzi juda shirin, mazali edi.

mevalar

olma
o'rik

sabzavotlar

sabzi
lavlagi

nok
gilos

piyoz
kartoshka

Topishmoq

Yer tagida oltin qoziq.



5-topshiriq

Kuzda bolalar ekinzorga chiqdilar. Ekinzorda pomidor, baqlajon, kartoshka, sabzi, sholg‘om, piyozi pishgan. Bolalar savatlar, quti olib keldilar. Valijon baqlajon terdi. Odiljon sabzi, piyoz uzdi. Valijon baqlajonlarni savatga soldi. Odiljon sabzilarni tozalab qutiga soldi.

Birlik

Baqlajon

Piyoz

Kartoshka

Savat

Sabzi

Quti

Sholg‘om

Test. Quyidagilardan qaysi biri sabzavot emas?

1. baqlajon
2. sabzi
3. piyoz
4. olma
5. kartoshka

Topishmoq

Pak-pakana bo‘yi bor, yetti qavat to‘ni bor.



6-topshiriq

Atirgul qizil.
Gulsapsar sariq.



7-topshiriq

Rayhonning bargi, guli mayda bo‘ladi.
Lolaning guli qizil rangda.
Gulzor juda go‘zal va xushbo‘y.
Guldasta juda chiroyli.

Rasmga qarab hikoya tuzing:



Shuhrat maktab bog‘ida gullarni payxon qilyapti. Uni bolalar: Salim, Karim, Usmon, Anvar, Yo‘lchi, Zumrad ko‘rib qoldilar. Bolalar Shuhratni koyidilar. Shuhrat bolalardan kechirim so‘radi. Bolalar gullardan guldasta tayyorladilar. Bolalar o‘qituvchilar kuni 1-oktabr bilan o‘qituvchi va tarbiyachilarni tabrikladilar.





8-topshiriq

Ko‘zlari olazarak bola

Yomon bola

Ajab bo‘pti,

O‘g‘irlikka

shu zahoti

tushdi gulga

tushdik-u qo‘lga

Bola gul o‘g‘irladi.



Bola yomon ish qildi.



Bola gul o‘g‘irlaganini bog‘bon
ko‘rdi.

Bog‘bon bolani urishdi.

**Qarang. Gul applikatsiyasi. Siz ham shunday bajaring.
Talabnoma yozing.**

Ish uchun menga , qaychi.....,
.....kerak.

(qog‘oz, qalam, qaychi, yelim, gul, barg, barg andazalari)

Men gul andazasini qog‘ozga qo‘ydim. Andaza atrofini chizdim. Uni qirqib oldim. Band, barg andazalarini ham shunday tayyorladim. Albomga avval bandni, keyin gulni yopishtirdim. Albom varag‘ining burchagiga ismim va familiyamni yozdim.



9-topshiriq

Quruq mevalar
yong‘oq
yeryong‘oq

Ho‘l mevalar
qulipnay
anjir

pista

uzum
shaftoli

Rasmga qarab hikoya tuzing.



Savollarga javob bering.

*Mevalarni yeyishdan oldin nima qilish kerak?
Maktab bog‘ida qanday mevalar bor?*

Yodlang. Tozalik – sog‘lik garovi.
Sog‘ tanda sog‘lom aql.



10-topshiriq

Kuzda barglar bayrami

Yo‘ldosh olma, gilos, yong‘oq, tol barglarini terdi.





11-topshiriq


Barglar

Reja:

1. Gilos bargini tanladim.
Kartonga eni 18 sm, uzunligi 25 sm to‘g‘ri
to‘rtburchak chizdim.

To‘g‘ri to‘rtburchakni qirqib oldim.

Qog‘oz ustiga barglarni joylashtirdim.
Ustini sellofan bilan berkitdim.



**Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib gaplarni
ko‘chiring. Tanlagan so‘zingizga savol bering.**

1.da daraxt barglari sarg‘ayadi (kuz, yoz, qish).
2. Kuzda barglari sarg‘ayadi (daraxt, archa).
3. Kuzda daraxtlari sarg‘ayadi (barg, shox).
4. Kuzda daraxt barglari (sarg‘ayadi, ko‘karadi).

Topishmoq

Qishin yozin bir xilda.



12-topshiriq

Ayiqcha

Ayiqcha qayiqchaga chiqa olmay yiqildi.

Qarang ana Urinib xo‘p

Mahmadona

Chiqolmas u

Ayiqchaga

Qayiqchaga

She'r mahmadona ayiqcha haqida.
Ayiqcha qayiqchaga chiqmoqchi edi.
Ayiqcha qayiqchaga chiqa olmadi.
Ayiqcha mahmadona ekan.




Mahmadona – maqtanchoq, bajara olmaydigan ishni qilmoqchi bo'ladi.



13-topshiriq

“Bizning maktabimiz” maketi



Bolalar mакtab, ustaxona, sport maydonchasi binolarini yasadilar.

Maktab uch qavatli.

Yotoqxona ikki qavatli.

Maktab binosi balandroq.

Sport maydonchasi uchun bolalar futbol maydoni, basketbol ustuni, voleybol to'ri ni yasadilar.

Bog' va gulzor uchun daraxtlar, gullar yasadilar.

“Bizning maktabimiz” maketini sinf xonasiga qo'ydilar.

Maket yasash uchun plastilin, qog'oz, karton, yelim, qalam, qaychi, gugurt cho'pi, qutisi, ip kerak.

Maketda mакtab, ustaxona, yotoqxona, sport maydonchasi binolari bor.

Binolarni plastilindan yasash mumkin.

Sport maydonchasining jihozlarini cho'pdan, plastilindan, ipdan yasash mumkin.



14-topshiriq

Savat cho‘pdan



Yelkan qog‘ozdan



Stul legodan



Men bilan ishladim (Feruza, Ahmad).

Men Ahmad bilan yasadim (maket, gul).

Men dan maket yasadim (plastilin, qog‘oz).

Matnni o‘qing va unga sarlavha tanlang.

Bizning maktab shahar markazida joylashgan. Maktabimizda bog‘, ustaxona, oshxona, o‘quv binolari bor. O‘quv binosida 30 ta sinf xonasi bor. 1ta eshittirish xonasi, 1 ta kompyuter xonasi, 1 ta ritmika xonasi bor. Sinf xonalarida eshittirish apparatlari ishlaydi. Yana ko‘p o‘quvchilarning o‘zlarida cho‘ntak apparatlari bo‘ladi. Apparatlar yordamida o‘quvchilar yaxshi eshitadilar. Kim yaxshi eshitsa, o‘sha yaxshi gapiradi. Shuning uchun o‘quvchilar yaxshi eshitishga harakat qiladilar.

Tarbiyachingiz yordamida matnni qismlarga bo‘lib, savollar tuzing.



15-topshiriq

Joy-massiv

9 qavatlı uy



To‘qqiz qavatli uy g‘ishtdan qurilgan. Unda balkonlar bor.

To‘qqiz qavatli uy Navoiy ko‘chasida joylashgan.

Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

Ko‘n qayatli uvlarni lar quradi (quruqchi, shifokor)

Uylarni
.....

.....quradilar (g‘isht, loy, beton, yelim, xamir, plastilin).

Matnni o'qing va so'zlab bering.

Men tumanida,
ko'chasida.....uyda yashayman. Bizning uyimiz
katta, yorug' va chiroyli. Bizning uyda 7 kishi yashaydi.
Bizning uyda Qoplon ismli it bor. Men Qoplon bilan
o'ynayman.



16-topshiriq

Kursi yasash

Kursini legodan yasash mumkin.

Reja:

1. Kursining oyog‘ini yasash.
2. Kursining o‘rindig‘ini yasash.
3. Kursining suyanchig‘ini yasash.
4. Qismlarni birlashtirish.



Bajargan ishingiz yuzasidan shunday hisobot yozing.

Men kursining oyog‘ini 1 tali legodan yasadim. Men 4 ta oyoq yasadim. Kursining o‘rindig‘ini 4 tali legodan yasadim. Kursining suyanchig‘ini 1 tali legodan yasadim.

Ish uchun menga 1 tali legodan 16 ta, kursining oyoqlari uchun 12 ta, kursining suyanchig‘i uchun 4 tali legodan 8 ta, kursining o‘rindig‘i uchun 4 tali lego kerak bo‘ldi.

Bajargan ishingizni og‘zaki gapirib berishga harakat qiling.



17-topshiriq



Alisher metroga kirayotgan edi. Eskalatorda tushayotgan otaxonni ko‘rib qoldi. Alisher qo‘lini otaxonga tutdi va eskalatordan tushishiga yordam berdi.

Quyidagi rasmlardan hikoya tuzing va nomlang.

Maktab kiyimidagi qizcha ko‘zi ojiz kishini yo‘ldan o‘tkazmoqda.

Bolalar uyalib qarab turishibdi.

Bolalar ko‘zi ojiz kishining qo‘lidan papkasini olishdi va o‘rtada ko‘zi ojiz kishi ketyapti.



18-topshiriq

Dam olish kuni



Malika uyda edi. U uyda onasiga yordam berdi. Onasi ovqat pishirdi. Malika uy tozaladi, so‘ngra Malika gullarga suv quydi, onasi dasturxon bezadi. Malika, onasi, dadasi tushlik qildilar. Keyin Malika, onasi va dadasi kinoga bordilar.

Shunday hikoya tuzing.

Men dam olish kunlari uyda bo‘ldim. Yakshanba kuni kiyim

javonimni tozaladim. Kitoblarimni tartibga soldim. Maktab kiyimlarimni xaltaga soldim. Onamga uy ishlarida yordam berdim. Kitoblarim, daftarlarimni tartibga soldim. Dushanba kuni toza bo‘lib, maktabga keldim. O‘qituvchimiz va tarbiyachimiz mendan xursand bo‘ldi.

Dam olish kuningiz haqida gapirib bering.



19-topshiriq

Odobli bolalar yolg‘on gapirmaydilar. Bolalar mahallada futbol o‘ynayotgan edi. Mahmud koptokni qattiq tepdi. Koptok deraza oynasiga tegdi. Oyna sindi. Bolalar qochib ketdilar. Mahmud deraza yoniga keldi. Uy egasiga rostini aytdi. Mahmud kechirim so‘radi. Uy egasi kechirdi.



Ayting-chi? Uy egasi Mahmudni nega kechirdi?

**Sizning hayotingizda shunday voqeа bo‘lganmi?
Gapirib bering.**



20-topshiriq


Tug‘ilgan kun

Tulkichaga ayiqcha asal, olmaxon yong‘oq, quyoncha sabzi olib keldi.

Men sabzi rasmini chizdim.
 Muhayyo yong‘oq rasmini chizdi.
 Umida asal rasmini chizdi.
 Ergash, Qodir, Otabek plastilindan
 yong‘oq yasadilar.
 Saida, Muhabbat, Iroda sabzi
 applikatsiyasini yasadilar.



21-topshiriq



1. Svetafor chiroqlarini yasash uchun aylanalarni chizing.
2. Aylanalarni qizil, sariq, yashil rangga bo‘yang.
3. Aylanalarni qirqing.
4. Aylanalarni qog‘ozga yopishtiring.

Yozing. Ish uchun sizga nimalar kerak bo‘ldi?

Rasmlarga qarab hikoya tuzing.



Test. Svetaforning qaysi rangi harakatni taqiqlaydi?

1. Sariq
2. Qizil
3. Yashil

Svetaforda qaysi rang bo‘lmaydi?

1. Qizil
2. Yashil
3. Qora
4. Sariq

Yodlang. Bizga aytar so‘zi bor. Uchta chaqmoq ko‘zi bor.



22-topshiriq

Usta

Men ham kichik
ustaman,
O‘z ishimga puxtaman.
Dadam bilan
Ertalab,

yog‘och, taxta
randalab,
Uycha qurdik
tovuqqa,
Qolmasin deb sovuqqa.

Rasmda ifodalangan ertakni so‘zlab bering.

1. Qizcha o‘rmonga ketayapti.
2. O‘rmonda sovuqdan qotgan quyonlarni ko‘rib qoldi.
3. Quyonchalarga ro‘molini o‘ratib qo‘ydi.
4. Qizcha quyonlardan: “Sovuqmi?” — deb so‘radi.
Quyonlar: “Juda sovuq”, — deb javob berdilar.

5. Daraxt ortida tulki ko‘rindi.
6. Qizcha tulkiga non berdi.
7. Qizcha uyiga chopdi.
8. Qizcha chelak, lopatka olib keldi.
9. Qizcha qordan quyonlarga uycha qurdi.
10. Qizcha quyonlardan “Sovuqmi?” — deb so‘radi.
11. Quyonchalar qizchaga: “Issiq, rahmat”, dedilar.
12. Qizcha quyonchalar bilan xayrlashib uyiga ketdi.



Test. Kimning qulog‘i uzun?

1. Tulki.
2. Quyon.
3. Mushuk.
4. Sichqon.



23-topshiriq


Iskandar va Muxlisa uy qurdilar. Ular uchta devor qurdilar. Bitta devorga 4 ta qator kubik qo‘ydilar.

O‘ng tomonga 4 qator kubik qo‘ydilar. Chap tomonga 4 qator kubik qo‘ydilar. Yuqoriga 2 qator kubik qo‘ydilar.

Kim qayerda yashaydi?



24-topshiriq



Kiyimlarni fasllarga qarab ajrating.

1. Yozda, kiyiladi.
2. Kuzda, bahorda, kiyiladi.
3. Qishda, kiyiladi.



25-topshiriq

Qayiqcha

Ish uchun menga: qog‘oz, qalam, yelim, andaza, 2 ta yon suzgich, pastki suzgich, yong‘oq, qaychi kerak bo‘ladi.

**Shunday qayiqcha yasang.
Qayiqcha yasash uchun sizga nimalar kerak, yozing.**



Qayiqchani qanday yasaysiz, bayon qiling.

1. Avval nima qilasiz?
2. Yelkanni nimadan yasaysiz?
3. Yelkanni nimaga o‘rnatasiz?

Avval yong‘oq po‘chog‘iga to‘g‘ri to‘rtburchak karton qog‘ozni yopishtiraman.

Keyin qog‘ozga yelkan andazasini qo‘yib, qirqib olaman.

Yelkan ustunchasini gugurt cho‘pidan yasayman, uni kartonga o‘mataman.

Ustunchaga yelkanni kirgizaman.

Qayiqcha tayyor bo‘ldi. Uni nomi “Tinchlik”.



26-topshiriq

Gullarni parvarishlash




1. 2-”A” sinfda aloe, pechakgul va kaktus gullari bor.
2. Jamila aloe gulining bargini mo‘yqalam bilan tozalayapti.
3. Oybek pechakgulning bargini latta bilan artyapti.
4. Saida gullar tagini yumshatyapti.
5. Gullar chiroyli bo‘lib o‘syapti.

Test. Gullar uchun nimalar zarur?

- a) Non, choy, shakar.
- b) Tuproq, suv, havo.
- c) Yog‘, tuz.



27-topshiriq



Reja:

1. Qog‘ozni ikkiga buklang.
2. Bosh andazasining chetlarini chizing.
3. Tana qismi andazasining chetlarini chizing.
4. Chiziqlar bo‘yicha bosh va tana qismini qirqing.
5. Tana qismini yelimlab, oyoqlarini buklang.
6. Boshni yelimlab tanasiga biriktiring.
7. Itni chiziqlar bo‘ylab bo‘yang.

**Itcha o‘yinchog‘ini ham shunday yasang.
Qanday yasalganini daftaringizga yozing.**

Topshiriq.

Reja:

1. Aravachaning tagini yasang.
2. Aravachaning yonlarini yasang.
3. G‘ildiraklarni qo‘yish.
4. Aravaning ushlagichlarini qo‘yish.
5. Barcha qismlarini ulash.

Otga aravachani ulangan rasmi.

Bolaga aravacha ulangan rasm.

Qaysi biri to‘g‘ri.

Javob yozing:

Aralardan nimalarda foydalaniladi.



28-topshiriq

Asalari hech narsa demabdi.



xo‘roz

xo‘roz



chigirtka

chigirtka



chivin

chivin



asalari

asalari



gul

gul



asal

asal

Xo‘roz debdi: men qichqirsam tong otadi.
Chigirtka debdi: mening kuyim yoqimli.
Chivin debdi: men odamlarga ninamni sanchaman, ular pashshaxona tutib olishadi.
Asalari hech narsa demabdi. U asal yig‘ib uchaveribdi.

Shu to‘g‘rimi?

Xo‘roz – asal yig‘adi.
Asalari – qichqiradi.
Chivin – vovullaydi.
Chigirtka – miyovlaydi.
(vizillaydi, qichqiradi, asal yig‘adi, chirillaydi).

Test. Uy hayvoni nomini toping.

Kataklarni to‘ldiring.

1. Chigirtka.
2. Sigir.
3. Chivin.
4. Asalari.



29-topshiriq

Shirmoy non



Oyim yopar shirmoy non,
Men ham qarab turmayman.
Gul solaman xamirga,
O't yoqaman tandirga.

Mehnat qilgach, albatta,
Sindirib katta-katta.
Yeyilganda shirmoy non,
Men ham qarab turmayman.

Po'lat Mo'min.

Yodlang. Non rizq-ro'zimiz.
Non dasturxon bezagi.



30-topshiriq

Shifokor qabuli



Biz shifokor xonasiga bordik. U yerda shifokor, 1 ta o'g'il bola, 1 ta qiz bola, hamshira bor ekan. Bolaning ismi Po'lat. Qizchaning ismi Shoira. Shifokor Po'latning tomog'i, qulog'ini ko'rdi. Dori berdi. Qizchani kasal bo'lmasligi uchun emladi. Emlash uchun shpris ishlatdi.

.....ning tomog‘i og‘riyapti.

.....Po‘latga yordam berdi.

Ayting-chi? Maktab shifokoringizning ismi nima?

U sizga yordam bergenmi?

Sinfingizdan kim kasal bo‘lgan?

Unga kim yordam bergen?

Unga qanday yordam bergen?



31-topshiriq

Tom va Jerri

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Mushuk Tom va sichqoncha Jerri bo‘lgan ekan. Ular bir uyda yashar ekan. Bir kuni Tom, Jerri hovlida koptok o‘ynayotsa, chumchuqcha uchib o‘tibdi.

Tom uni yemoqchi bo‘libdi va qopqon qo‘yibdi.

Chumchuq qopqon yoniga kelib, don cho‘qimoqchi bo‘libdi. Tom chumchuqni qopqonga tushurib yemoqchi bo‘libdi. Jerri chumchuqqa yordam beribdi. Tom, Jerri, chumchuqcha do‘sst bo‘lishibdi.



Mansur, Ilyos mushukcha Tom rasmini chizdi.


Zulkumor va Fotima plastilindan mushukcha yasadi.

Akrom, Baxtiyor, Kimyo, Odina sichqoncha Jerri rasmini chizdi.

Men chumchuqcha aplikatsiyasini yasadim. Men avval ish uchun qog‘oz, qalam, yelim tayyorladim.



Chumchuqning tanasini chizdim.
 Tanani qirqdim.
 Kartonga yopishtirdim.
 Tanaga ko‘z, qanot chizdim.
 Qog‘ozdan oyoqchalar yasadim.
 Oyoqchalarni tanaga biriktirib
 yopishtirdim.



32-topshiriq

Yangi yil ertagi



Yangi yil kechasi o‘rmonda bayram bo‘ldi. Hayvonlar o‘rmonning o‘rtasiga kelishdi. U yerda baland archa bor ekan. Hayvonlar archani yasatmoqchi bo‘ldilar. Hamma hayvonlar o‘zlari yaxshi ko‘rgan narsalarni osdilar. Bo‘ri qo‘zichoq rasmini, tulkixon xo‘roz rasmini, ayiq asal bo‘chkasini, quyonlar do‘mbiralarni, olmaxon kedr yong‘oqlarini, chumchuqlar qo‘ng‘iroqchalarni osdilar.

Keyin Qorbobo va Qorqiz kelishdi. Ular hamma hayvonlarga o‘yinchoqlar sovg‘a qilishdi. Hamma hayvonlar yuzlariga niqob kiyib, archa atrofida raqsga tushdilar. Qorbobo va Qorqiz tomosha qildilar.

Yangi yilda nima bezatiladi? (archa)

Yangi yil kechasi o‘rmonda bayram bo‘ldi. Hayvonlar o‘rmonning o‘rtasiga kelishdi. U yerda baland archa bor ekan. Hayvonlar archani yasatmoqchi bo‘ldilar. Hamma hayvonlar o‘zlari

Archaga (nimalar) osiladi? (o‘yinchoqlar)
Bayramga (kimlar) keladi? (Qorbobo va Qorqiz)
Quyonlar archaga (nimalar) osdi? (do‘mbiralar)
Olmaxon archaga (nimalar) osdi? (kedr yong‘oqlarini)
Bo‘ri (nimani) yaxshi ko‘rarkan? (qo‘zichoqni)
Hayvonlar yuzlariga (nima) kiydilar? (niqob)



33-topshiriq

Ikkita aravacha uchun 8 ta g‘ildirak kerak.

11 ta arava uchun 44 ta g‘ildirak kerak.

12 ta g‘ildirak 3 ta aravachaga yetadi.



34-topshiriq

Qorboboning oyoq, qo‘li qordan, qo‘lida supurgi, boshida chelak bor.

Qorboboning bo‘ynida sharf bor.


Qishda o‘ynash uchun bolalarga chana, chang‘i ... kerak.

Men qishda ...ni yaxshi ko‘raman.



35-topshiriq

Narvon yasash uchun planka,
skoba, vint, gaykalar kerak.





36-topshiriq

Archa bayrami

Qorboboga xat

Assalomu alaykum, Qorbobo va Qorqiz.



Men 2-“A” sinfo‘quvchisi Jamolov Samandarman. Men a’lochi o‘quvchiman. Mening do‘stim Nodir ham yaxshi o‘qiydi. Biz doim darsdan keyin birga o‘ynaymiz, dars tayyorlaymiz. Kompyuterda har xil o‘yinlar o‘ynashni yaxshi ko‘ramiz.


Siz bizga kompyuter sovg‘a qilsangiz xursand bo‘lamiz. Xayr, sog‘ bo‘ling deb Samandar.

Maktabingizda kompyuter bormi?
Kataklarga tegishli so‘zlarni yozing.

- | | |
|---------|---------|
| 1. Ko‘z | 5. Yo‘l |
| 2. Ona | 6. Upa |
| 3. Mosh | 7. Tosh |
| 4. Pul | 8. Elak |
| | 9. Rom |



Bu kompyuter



37-topshiriq

Vatan himoyachilar

Askar shaklini yasash uchun plastilinni olamiz. Avval gavda qismlari: bosh, tana, oyoq, qo‘llarini yasaymiz. Keyin ularni biriktiramiz. Askarning qalpog‘ini, yulduzchasini yasaymiz.

Qalpog‘ini boshiga, yulduzchani
yelkasiga o‘rnatamiz.

Biz yasagan askar juda kuchli, dovyurak.



Tartib bilan yozing.


Oyoq, bosh, tana, qo‘l, bo‘yin.

1. toping. 1-oyoq

2. 2-bosh

3. 3-qo‘l

4. 2



5. 3



38-topshiriq

Quyon tagida qalin qorning ichiga berkinadi. U qorda ko‘rinmaydi. Chunki u oppoq Daraxtning tagiga yumshoq momiq solib qo‘ygan.



39-topshiriq

Tulki va qiz

Tulki xo‘rozni tutib olibdi-da, iniga qarab yugurib qolibdi.

Buni bir qizcha ko‘rib:

— Anavini qaranglar, tulki xo‘rozni tutib ketyapti ? — deb qichqiraveribdi.

Xo‘roz tulkiga:

— Qizga baqirmaysanmi, Tulki xo‘rozni tutib ketgan bo‘lsa, senga nima



demaysanmi? — deb gap o‘rgatibdi.

Tulki qizdan achchig‘lanib:

— Sening nima ishing bor, aralashma, — deb baqiribdi.

Tulki og‘zini ochishi bilan xo‘roz par etib uchibdi va daraxtning uchiga qo‘nib olibdi.

Tulki ovini og‘zidan oldirib, quruq qolibdi.

Test. Hayvonlardan qaysi biri ayyor?

1. Ayiq
2. Tulki
3. Bo‘ri
4. Sher

Hayvonlardan qaysi biri eng qo‘rqmas?

1. Ayiq
2. Quyon
3. Bo‘ri
4. Sher



40-topshiriq

Avval men kataklarni chizdim va qirqib oldim. Keyin men sanalar, hafta kunlarini yozdim. Har bir oy uchun rasmlar topdim va yopishtirdim. Keyin varaqlarni tikdim.

Suyanchiq yasadim. Kalandarni suyanchiqqa yelimladim.



Javob bering

Yilning 7-oyi qaysi?


Martdan oldin qaysi oy keladi?

Onalar bayrami qaysi faslda?


O‘qituvchilar kuni qaysi faslda?

*Eng ko‘p bayramlar qaysi faslda?
Onangiz qaysi faslda tug‘ilgan?
Dadangiz qaysi faslda tug‘ilgan?
Haftaning qaysi kunida dam olasiz?*

1. Hafta kunlaridan birini gulga joylashtiring.
2. Yana qaysi hafta kunlari to‘g‘ri keladi?



! 41-topshiriq



Samolyot yasash uchun menga: qog‘oz, qaychi, qalam, chizg‘ich kerak.

Men qog‘ozga uzunligi 18 sm, eni 12 sm li to‘g‘ri to‘rtburchak chizdim. To‘g‘ri to‘rtburchakni qirqib oldim. To‘g‘ri to‘rtburchakni uzunasiga bukladim. So‘ngra andazani qo‘yib chizdim. Samolyotni kontur bilan qirqib oldim.

Samolyotni ochdim. Tumshuq qismini ko‘ndalangiga 2 bukladim. Samolyotni 2 ga bukladim.

Samolyot

- | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
1. Sochiq
 2. Ayiq
 3. Mushuk
 4. Olcha
 5. Lola
 6. Yetti
 7. Olma
 8. Terak



42-topshiriq

Men teatrga bordim.

U yerda men tomosha ko‘rdim.

Tomoshaning nomi “Sholg‘om” edi.

Men parterda 18-qator, 32-joyda o‘tirdim.

Lug‘atimga: teatr, zal, sahna, parter, o‘rin, bilet, qator so‘zlarini yozdim.

Kuchukcha mushukchani chaqirdi.


Moshvoy sichqonchani chaqirdi.

Sichqon yugurib keldi.

Hamma birgalikda sholg‘omni tortib oldi.

1. Shar
2. Olma
3. Lola
4. G‘ildirak
5. Olxo‘ri
6. Mushuk

Rasmlarning nomini eslang. So‘zlarning birinchi harflarini gulchaga joylashtiring.



43-topshiriq

Kinoteatr

Reja:

1. Arka, planka, kubiklarni oldim.
2. Kubiklardan devor qurdim.
3. Plankani o‘rtaga qo‘ydim. Ustiga qog‘ozdan tom yopdim.

Dorixona

Men ikkita arkani oldim va kartonga qo‘ydim. Keyin men kubiklardan devor qurdim. Deraza o‘rni ochiq qoldi. Eshikni kartondan yasadim.

Test. Kinoteatr qanday joy?

1. Futbol o‘ynaydigan joy.
2. Paxta teradigan joy.
3. Kino, konsert ko‘radigan joy.

Dorixona qanday joy?

1. Oziq-ovqatlar sotiladigan joy.
2. Dori-darmonlar sotiladigan joy.
3. Kiyim-kechak sotiladigan joy.
4. O‘yinchoqlar sotiladigan joy.



44-topshiriq

Nosir guldronni shunday yasadi.
U qaychi, qalam, yelimni oldi.
Avval u guldronni chizdi, keyin qirqib oldi.



45-topshiriq



Militsioner,



duradgor,



quruvchi,



cho‘pon.

Bu yerda Guli va Salim yashaydi.
Guli va Salimning onasi tikuvchi.

Bu yerda Saida yashaydi.
Saidaning dadasi militsioner.



Javob bering.

1. *Sen kim bo 'lmoqchisan?*
2. *O 'rtog 'ing kim bo 'lmoqchi?*



46-topshiriq

Hurmatli onajonim!

Men sizni 8-mart bayrami bilan tabriklayman. Men siz uchun gul tayyorladim. Doim shu guldek ochilib yuring.

Qizingiz Feruza.

Hurmatli ustozimiz Ubayda opa!

Biz sizni 8-mart bayrami bilan tabriklaymiz. Siz bizni o'qitishda charchamang. Sizga sog'lik, uzoq umr tilaymiz.

O'quvchilaringiz.

Hurmatli sinfdoshim Sarvinoz!

Men seni 8-mart bayrami bilan tabriklayman. Sinfimizdagi eng ozoda, odobli, a'luchi qiz bo'lgin deb

Sinfdoshing Mahmud.



47-topshiriq

Bahor applikatsiyasi

Ish uchun menga qog‘oz, qalam, qaychi, yelim, andazalar kerak.

Juft bo‘lib ishladik. Men Shuhrat bilan ishladim. Oybek Saida bilan ishladi. Biz daraxtlarni chizdik, qirqdik, yelimaladik. Oybek va Saida yaylov, maysalarni chizdi, qirqdi. Biz daraxtlarni o‘ngga qo‘ydik.

Oybek va Saida yaylovnini old tomonga qo‘ydi. Kapalaklar, qaldirg‘ochlar yasadik. Qushlarni daraxt shoxlariga qo‘ydik. Bahor applikatsiyasi chiroyli chiqdi.

Ko‘rsating

1. Old fonni ko‘rsating.
2. Orqa fonni ko‘rsating.
3. Yuqori, past, o‘ng, chap tomonlarni ko‘rsating.



48-topshiriq

Bobojonlarimiz, buvijonlarimiz haqida hikoya tuzing.

Ayting-chi?

Kimning buvisi eng katta?

Kimning bobosi eng katta?

Qaysi buvining nevarasi ko‘p?

Qaysi boboning nevarasi ko‘p?

Test. Nevara kim bo‘ladi?

1. Bolasining bolasi
2. Akasining ukasi
3. Xolasining o‘g‘li
4. Tog‘asining jiyanı



49-topshiriq

Transportlar

1. Odamlar tramvay, trolleybus, metroda yuradilar.
2. Odamlar samolyot, vertolyot, raketada uchadilar.
3. Odamlar qayiq, paroxodda suzadilar.



Nima yaxshi-yu, nima yomon

Nega unday deb o‘ylaysiz? Izohlang.



50-topshiriq

Qum qurilishda ishlataladi?

Tuproqdan g‘isht, o‘yinchoqlar, hayvonlar yasadik?

Test. Qaysi faslda tuproq qiziydi?

1. Yozda.

2. Bahorda
3. Qishda
4. Kuzda

Qaysi fasllarda tuproqqa ishlov beriladi?

1. Yoz, qishda
2. Bahor, kuzda
3. Kuz, qishda
4. Bahor, yozda



51-topshiriq

Toshlar rangi har xil.
Shakli ham har xil.
Ohakning rangi oq. Shakli yassiroq.
Bo‘r ham oq rangda. Shakli yumaloq.



Bo‘r nimaga ishlataladi?
Ohak nima uchun kerak?



52-topshiriq

Gullar

Sinf xonasida juda ko‘p xonaki gullar bor. Iskandar va Samandar gullarning tagini yumshatyapti. Umida bilan

Shoxsanam barglarni artdi. Sarvinoz bilan Sarvar gullarga suv quyyapti. Gullarni yoruqqa qo‘ydilar. Oybek bilan Ahmad tuvakka gul o‘tqazdilar. Jahongir bilan Otabek chelakda tuproq olib chiqdilar.

O‘qituvchimiz bizdan xursand bo‘ldi.



Javob bering.

Gullarni parvarish qilishda nechta o‘quvchi qatnashdi?

Qizlar va bolalar baravar ishladimi?



53-topshiriq

- | | |
|--|---|
| - Allo! Assalomy alaykum. | - Va alaykum assalom. |
| - Bu Samandarlarning xonadonimi? | - Ha, shunday. |
| - Menga Samandar kerak edi. | - Kim so‘rayapti? |
| - Men o‘rtog‘i Iskandarman. | - Hozir chaqiraman. |
| - Allo, Samandar, salom. | - Salom Iskandar. |
| - Nega “kurash” mashg‘ulotiga kelmading? | - Bugun boshim og‘ridi, ayt-chi, nimalar bo‘ldi? . |
| - Bugun bizning oldimizga Juhon championi Maxtum Sobirov keldi. Men undan dastxat oldim. | - |
| - Albatta. Xo‘p xayr, sog‘ayib, tezroq darsga kelgin. | - Voy, attang.
Sog‘ayib ketsam boraman. Ko‘rsatasanmi? |

Dastxat nima?

Sening dastxating qanday?

Kimning dastxati chiroyli?

F. Qodirova

NUTQ O'STIRISH

Kar bolalar maktablarining 2-sinfi darsligiga

ILOVA

Muharrir
Dizayner

**Inobat Tursunova
Viktoriya Antonova**

Maktab jamg'armasiga kiritilgan. Bepul.

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 20.12.02.

Bichimi 210x297mm. Ofset qo'gozi.

Buyurtma raqami № 84/1 . Adadi 170 dona. Bosma tabog'i 5.
O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining axborot-
tijorat markazi bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 107-A.

Toshkent «Uzincomcenter» 2002